



UDK:1:111:378.532

Farhod MELIKULOV,
O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi ma'sul xodimi, Toshkent, O'zbekiston
E-mail: farhod541@mail.ru

PhD, dots. U.Ergashev taqrizi asosida

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINI MA'NAVIIY-AXLOQIIY TARBIIYALASHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ichki ishlar organlari xodimlarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilingan. Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda ichki ishlar organlari xodimlarining ma'naviy qiyofasi, kasbiy madaniyati va axloqiy fazilatlarini muhim ahamiyat kasb etishi yoritilgan. Xodimlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, vatanparvarlik, insonparvarlik, qonunga hurmat va kasbga sadoqat ruhida tarbiyalashning zamonaviy yondashuvlari hamda ilmiy-nazariy jihatlari ochib berilgan. Maqolada ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonini samarali tashkil etish yuzasidan fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Ichki ishlar organlari, ma'naviy-axloqiy tarbiya, ma'naviyat, axloq, tarbiya, kasbiy madaniyat, vatanparvarlik, insonparvarlik, qonun ustuvorligi, kasbga sadoqat, milliy qadriyatlar, ma'naviy immunitet, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, tarbiyaviy faoliyat, metodologik yondashuv.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ СОТРУДНИКОВ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

Аннотация

В данной статье проанализированы теоретико-методологические основы духовно-нравственного воспитания сотрудников органов внутренних дел. Освещается важное значение духовного облика, профессиональной культуры и нравственных качеств сотрудников органов внутренних дел в обеспечении верховенства закона, защите прав и свобод граждан в обществе. Раскрыты современные подходы и научно-теоретические аспекты воспитания сотрудников в духе национальных и общечеловеческих ценностей, патриотизма, гуманизма, уважения к закону и преданности профессии. В статье также представлены суждения и рекомендации по эффективной организации процесса духовно-нравственного воспитания.

Ключевые слова: Органы внутренних дел, духовно-нравственное воспитание, духовность, нравственность, воспитание, профессиональная культура, патриотизм, гуманизм, верховенство закона, преданность профессии, национальные ценности, духовный иммунитет, правосознание, правовая культура, воспитательная деятельность, методологический подход.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF INTERNAL AFFAIRS OFFICERS

Annotation

This article analyzes the theoretical and methodological foundations of the spiritual and moral education of internal affairs officers. It highlights the importance of the spiritual image, professional culture, and moral qualities of internal affairs personnel in ensuring the rule of law and protecting the rights and freedoms of citizens in society. The article reveals modern approaches and scientific-theoretical aspects of educating officers in the spirit of national and universal values, patriotism, humanism, respect for the law, and devotion to the profession. It also presents opinions and recommendations on the effective organization of the process of spiritual and moral education.

Key words: Internal affairs bodies, spiritual and moral education, spirituality, morality, education, professional culture, patriotism, humanism, rule of law, professional dedication, national values, spiritual immunity, legal awareness, legal culture, educational activity, methodological approach.

Kirish. Mamlakatimizda jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash, tinchlik hamda osoyishtalik muhitini qaror toptirish, inson huquqlari va erkinliklariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlashda ichki ishlar organlari xodimlarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash muhim o'rin tutadi. Yurtimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng qamrovli isloxtlarni hayotga izchillik bilan tatbik etish, xukukiy demokratik va fukarolik jamiyatini davlat barpo etish, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olishda ichki ishlar organlari xodimlarining nafaqat huquqiy, balki, ma'naviy-axloqiy bilimlarini yuksaltirish, har bir xodimni professional qilib tarbiyalash, ularda sog'lom dunyoqarash,

vatanparvar, o'z xizmat burchiga sadoqat, halol, adolat va qonun ustuvorligi asosida yashash ruhida tarbiyalash, yuksak ma'naviyatini kamol toptirish taraqqiyotning asosini tashkil etadi.

Bugungi kunda tizimda amalga oshirilayotgan ma'naviy islohotlar inson manfaatlarini ustuvor qo'yish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish orqali xavfsiz va barqaror muhitni yaratish, fuqarolar bilan ochiq va samarali muloqotni yo'lga qo'yish, qonun ustuvorligini ta'minlash, xodimlarning o'z kasbiy burchiga sadoqat bilan xizmat qilish, ular o'rtasida ma'naviy-

axloqiy ishlarning samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev aytganidek, "Respublikamizda tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari xalqaro miqyosda ham e'tirof etilmoqda. Buyuk Britaniyaning Iqtisodiyot va tinchlik instituti tomonidan o'tgan yili e'lon qilingan reyting ko'rsatkichlari bo'yicha O'zbekiston jahonning 121 ta mamlakati orasida eng xavfsiz davlat deb tan olindi"[1]. Ushbu e'tirof, avvalo, mamlakatimizda qonuniylik va jamoat xavfsizligini ta'minlash yo'lida faoliyat yuritayotgan ichki ishlar organlari tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning amaliy natijasi hisoblanadi.

Xususan, ichki ishlar organlari faoliyatini xalq manfaatlariga xizmat qiladigan tizim sifatida takomillashtirish, profilaktika ishlarini kuchaytirish, huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat tartibini saqlash va fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini himoya qilish borasidagi sa'y-harakatlar mamlakatimizda tinch va barqaror muhitni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Shu bilan birga, ichki ishlar organlari xodimlarining ma'naviy-axloqiy tarbiyasi, kasbiy madaniyati va xalq bilan mulqot qilish ko'nikmalarini yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlar ham tizim samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Zero, yuksak ma'naviyatga ega, Vatanga sadoqatli va qonunga hurmat ruhida tarbiyalangan xodimgina jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashda fidokorona xizmat qila oladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakatimiz aholisining muhofaza qilinishi, qonunga itoatkorlik va huquq-tartibotni, fuqarolarning huquqlari va erkinliklari ishonchli himoya qilinishi kabi mas'uliyatli vazifalar ichki ishlar organlari xodimlari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Biroq, ichki ishlar organlarining ayrim xodimlari tomonidan nojo'ya xatti-harakatlar, xizmat intizomi va qonun normalari buzilishi kabi salbiy holatlar sodir etilishi jamoatchilik tomonidan salbiy fikrlar bildirilishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa, ichki ishlar organlaridagi ko'plab halol xizmat qilayotgan xodimlarning obro'siga va sharaflari xizmatiga putur yetkazmoqda. Shuning uchun ichki ishlar organlari xodimlarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash bugungi davr uchun juda muhim bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-10-son qarori[2] bilan tasdiqlangan "Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi Kodeksi"da ichki ishlar organlari xodimlarini ona Vatan ravnaqi yo'lida sadoqat bilan xizmat qilish ruhida tarbiyalashga qaratilgan bir qator eng muhim vazifalar belgilangan.

Xalqimiz tinchligi, davlatimiz barqarorligi va qonuniyligni ta'minlashda ichki ishlar organlari xodimlarining o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Zero, jamiyatda osoyishtalik va xavfsizlikni ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, huquqbuzarlik hamda jinoyatchilikning oldini olish kabi muhim vazifalar bevosita mazkur soha faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Ayniqsa, aholining farovon hayot kechirishi, tinch va totuv muhitda yashashini ta'minlashda ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy burchiga yuksak mas'uliyat, fidoyilik va sadoqat bilan yondashishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, sohada xizmat qilayotgan har bir xodimdan nafaqat chuqur kasbiy bilim va amaliy ko'nikma, balki yuksak ma'naviyat, mustahkam iroda, vatanparvarlik va insonparvarlik fazilatlarini ham talab etiladi.

Hozirgi kundagi o'zgarishlar davlat organlari faoliyatini takomillashtirish, ularning xalqqa xizmat qilish tamoyili asosida ish olib borishini ta'minlash bilan bir qatorda, barcha sohalarida faoliyat yuritayotgan xodimlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga ham alohida e'tibor qaratishni nazarda tutmoqda. Ayniqsa, davlat xizmatchilarining yuksak ma'naviyatli, vatanparvar, xalqparvar va mas'uliyatli kadrlar sifatida shakllanishi mamlakat taraqqiyotining muhim sharti ekanligi ta'kidlanmoqda. Shu nuqtai nazardan, ichki ishlar organlari xodimlarini ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda qonunga hurmat, xizmat burchiga sadoqat, halollik, insonparvarlik va kasbiy madaniyat kabi fazilatlarini mustahkamlash davlat siyosati darajasidagi ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning "Ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashni yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda xalqimizning qadimiy tarixi, buyuk ajdodlarimiz merosi va ularning harbiy san'atni rivojlantirishga qo'shgan hissasini chuqur o'rganish muhim ahamiyatga ega"[3] - degan fikrlari ichki ishlar organlari xodimlari uchun dasturilamal bo'lishi lozim.

Faylasuf olim Q.Nazarovning "Mamlakatning rivojlanishi sur'ati mustaqil fikrlaydigan, ijtimoiy faol, ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk mutaxassislariga bo'lgan talabni alohida bosqichga olib chiqdi"[4] - degan qarashlari ham mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

Professor S.N.Berdiqulovning "Yangi O'zbekiston sharoitida kursant (tinglovchi), xodimlarning bilim darajasini jahon andozalari talablariga javob beradigan, fan-texnika yangiliklaridan xabardor, nostandart vaziyatlarda tezkor qaror qabul qiladigan, mustaqil fikrlay oladigan, hayotga dadillik bilan kirisha oladigan, ma'naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash dolzarb vazifalardan hisoblanadi"[5] - degan fikrlari ma'naviy-axloqiy tarbiyalash ishlarining naqadar muhim ekanini anglatadi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya bu – o'z xalqini sevish, u bilan faxrlanish, uning ravnaqi va taraqqiyoti uchun xizmat qilishdir. Ichki ishlar organlari xodimlarining ma'naviy-axloqiy tarbiyasi ana shunday tuyg'ularga asoslanishi lozim. Bunday tarbiya olgan xodimlar Vatan oldidagi mas'uliyatni teran his qiladilar, buyuk ajdodlarimiz sha'niga dog' tushirmaslik, ularning ezgu merosiga munosib voris bo'lish uchun fidoyilik bilan xizmat qiladilar.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot olib borish davomida tarixiylik, obyektivlik, abstraklikdan konkretlikka qarab borish, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil singari umumilmiy va umumfalsafiy metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning dolzarbligi, avvalo, jamiyatda kechayotgan globalashuv jarayonlari, axborot xurujlari, turli yot g'oyaga va mafkuraviy tahdidlarning kuchayishi bilan izohlanadi. Bunday sharoitda ichki ishlar organlari xodimlarida mustahkam hayotiy pozitsiya, milliy g'oyaga sadoqat, Vatanga muhabbat, qonunga hurmat va kasbiy mas'uliyatni shakllantirish davlat xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashning muhim omillaridan hisoblanadi. Shu bilan birga, ayrim holatlarda xizmat intizomining buzilishi, korrupsiyaviy holatlar, fuqarolar bilan muomala madaniyatidagi kamchiliklar kabi salbiy holatlar ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlarini yanada kuchaytirish zarurligini ko'rsatmoqda. Chunki ma'naviy jihatdan yetuk, halol, adolatli va fidoyi xodimgina xalq ishonchini qozona oladi.

Yangi O'zbekiston sharoitida "Inson qadrini ulug'lash, xalq manfaatlariga xizmat qilish kerak" degan tamoyil asosida davlat boshqaruvini takomillashtirish jarayonlari ichki ishlar organlari xodimlarining ma'naviy qiyofasiga nisbatan talablarni yanada oshirmoqda. Bu esa ularni milliy va

umuminsoniy qadriyatlar, insonparvarlik, bag'rikenglik, vatanparvarlik va qonun ustuvorligi ruhida tarbiyalashni taqozo etadi. Ayniqsa, xizmat faoliyatida turli murakkab vaziyatlarga duch keladigan ichki ishlar organlari xodimlari uchun yuksak ma'naviyat va mustahkam axloqiy immunitet muhim ahamiyatga ega.

Ichki ishlar organlari xodimlarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda quyidagi yo'nalishda amalga oshirilishi zarur bo'lgan asosiy tadbirlar keltiriladi:

birinchidan, Prezidentimiz asarlari hamda davlatimizda ma'naviyat va ma'rifat sohalaridagi ustuvor yo'nalishlarni o'rgatish, davlatimiz rahbarining ma'naviyat, qonun ustuvorligi, xalqparvarlik va adolat tamoyillariga oid fikrlari asosida tarbiyaviy tadbirlar o'tkazish, xodimlarning siyosiy-huquqiy madaniyatini oshiradi.

ikkinchidan, Ma'naviy-ma'rifiy mashg'ulotlarni muntazam tashkil etish xodimlar o'rtasida "Ma'naviyat va ma'rifat soatlari", davra suhbatlari, seminar va treninglarda milliy qadriyatlar, Vatanga muhabbat, kasb odobi, xizmat intizomi va inson huquqlariga hurmat mavzulari keng yoritilishi lozim.

uchinchidan, Psixologik va axloqiy treninglar tashkil etish, stressga bardoshlilik, muomala madaniyati, konfliktlarni bartaraf etish, korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirishga qaratilgan amaliy treninglar samarali hisoblanadi.

to'rtinchidan, Madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish, teatr, muzey, tarixiy obidalar, ma'naviyat maskanlarlarga

tashriflar tashkil etish xodimlarning dunyoqarashi va ma'naviy saviyasini yuksaltiradi.

beshinchidan, Oilaviy muhit bilan ishlash, xodimlar oilalari ishtirokida ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar, sport va madaniy tadbirlar o'tkazish orqali sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirish mumkin.

oltinchidan, Korrupsiya va huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha tarbiyaviy ishlarda halollik, adolat va xizmat burchiga sodiqlikni targ'ib qiluvchi profilaktik tadbirlar doimiy ravishda tashkil qilinishi zarur.

yettinchidan, Axborot texnologiyalari va media-ma'rifiy tarbiyadan foydalanish, elektron platformalar, videoroliklar, kinofilmlar va multimedia materiallari orqali ma'naviy tarbiyaning ta'sirchanligini oshirish mumkin [6].

Xulosa va takliflar. Inson ma'naviyatini belgilaydigan asosiy mezon – adolatparvarlik, iymon, insof, halollik bo'lib, inson o'z faoliyatining barcha sohalarida ana shu tamoyillarni amalga oshirsa, shular negizida hayot kechirsa, mehnat qilsa, boshqalar bilan o'zaro munosabatga kirishsa, elu-yurtiga sadoqatini amaliy ishi bilan ado etsa, yuksak ma'naviyat sohibiga aylanadi. Zotan, ichki ishlar organlari xodimlarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning dolzarbligi jamiyatda qonuniylik va adolatni ta'minlash, xalq ishonchini mustahkamlash, korrupsiya va huquqbuzarliklarning oldini olish hamda professional va fidoyi kadrlarni shakllantirish zarurati bilan belgilanadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 25-oktyabrda ichki ishlar organlari xodimlari va faxriylariga yo'llagan bayram tabrigi. URL–<https://president.uz/uz/lists/view/7646>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-10-son qarori.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Tom. 2., – T: "O'zbekiston", 2018. – B. – 171.
4. Nazarov Q. Falsafa asoslari. "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent: – 2005. – B. – 41.
5. Berdikulov S.N., Tojiboyev M.T. va boshq., Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyati va xizmat intizomi: Darslik – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2024. – B. – 6.
6. Umarov E., Abdullayev M. Ma'naviyat asoslari. Ukuv kullanma. T.: "Sharq" NMAK, 2005. – B. 6.